

## 2022– yilning yanvar–dekabr oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022– yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiyligi 34 102,9 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 33 706,7 mlrd. so'mni (103,7 %), o'rmon xo'jaligi – 201,4 mlrd. so'mni (101,7 %), baliqchilik xo'jaligi – 194,8 mlrd. so'mni (88,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.





Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar  
hajmining o'sish sur'ati, % da

01



Dehqonchilik  
va chorvachilik,  
ovchilik va ushbu  
sohalarda ko'rsatilgan  
xizmatlar – 103,7 %

02



O'rmon xo'jaligi  
101,7 %

03



Baliqchilik xo'jaligi  
88,1 %

2022- yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 103,7 % ni, o'rmon xo'jaligi – 101,7 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 88,1 % ni tashkil qildi.

**Ma'lumot uchun:**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022– yilning yanvar- dekabr oylarida tarmoqning ijobjiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2021 – yilning mos davriga nisbatan yugori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

✓ <i>Poliz</i>	— 110,8 %
✓ <i>Tuxum</i>	— 108,8 %
✓ <i>Mevalar, jami</i>	— 108,1 %
✓ <i>Pilla</i>	— 107,9 %
✓ <i>Uzum</i>	— 106,4 %



**Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining taqsimlanishi**



Dehqonchilik  
va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda  
ko'rsatilgan xizmatlar

98,8 %

O'rmon xo'jaligi

0,6 %


Baliqchilik xo'jaligi

0,6 %

2022- yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining 98,8 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2021- yilning yanvar – dekabr oylarida 98,8 %), 0,6 % i - o'rmon xo'jaligi (0,5 %), 0,6 % i baliqchilik xo'jaligi (0,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.




## Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022– yilning yanvar– dekabr oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (4 437,0 mldr. so'm) va G'ijduvon (3 881,0 mldr. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (74,0 mldr. so'm), Buxoro shahri (398,0 mldr. so'm) va Qorovulbozor tumani (993,0 mldr. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,6 %) yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (233,4 %), Buxoro shahar (112,3 %), Qorovulbozor (109,2 %), Peshku (105,7 %), Kogon (104,6 %) G'ijduvon (104,4 %) va Vobkent (103,9 %) tumanlarida kuzatildi. Jondor (102,0 %), Buxoro (102,0 %), Qorako'l (102,0 %), Romitan (102,7 %), Shofirkon (103,0 %) va Olot (103,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik  
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati**



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari  
umumi hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush Jondor tumaniga (13,0 %), G'ijduvon (11,4 %), Romitan (10,7 %) va Buxoro (10,3 %) tumanlariga kuzatildi. Aksincha kam ulushga ega hududlar Kogon shahar (0,2 %), Buxoro shahar (1,2 %), Qorovulbozor (2,9 %) va Kogon (6,9 %) tumanlariga kuzatildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**

2022– yilning yanvar– dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 33 255,9 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 17 299,2 mlrd. so'mni (105,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 15 956,7 mlrd. so'mni (102,2 %) tashkil qildi.



**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish  
hajmida dehqonchilik va chorvachilik  
mahsulotlarining ulushi, (% da)**



**52,0 %**

**Dehqonchilik  
mahsulotlari**




**48,0 %**

**Chorvachilik  
mahsulotlari**



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



**Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar**

01 ▶ Qorovulbozor

02 ▶ Buxoro sh.

03 ▶ Peshku

Kogon sh.

Kogon

G'ijduvon



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



61,4 %

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**

32,5 %

**Fermer xo'jaliklari**

6,1 %

**Qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlari**

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiylajmining 61,4 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,5 % i – fermer xo'jaliklariga, 6,1 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


**Ma'lumot uchun:**

Asosiy turdagи qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- |                         |          |
|-------------------------|----------|
| ✓ Go'sht (tirik vaznda) | — 91,6 % |
| ✓ Sog'iб olingan sut    | — 92,9 % |
| ✓ Sabzavotlar           | — 65,1 % |
| ✓ Kartoshka             | — 85,5 % |



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining  
hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida  
taqsimlanishi, (% da)**



2022-yilning yanvar– dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (61,5 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Qorako'l tumanida (75,2 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahrida (64,7 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Kogon tumanida (22,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (25,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qorako'l tumanida (1,8 %) qayd etildi.




## Dehqonchilik


2022–yilning yanvar – dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 17 299,2 mlrd. soʻmni yoki 2021–yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiylajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 52,0 % ni tashkil qildi.

### Donli ekinlar


**Hajmi, ming. t.**



**Oʼsish surʼati**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xoʼjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi**




2022–yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan 621,5 ming. t. donli ekinlar (2021–yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,6 % ga koʼp) yetishtirildi. Jami don yetishtirish koʼrsatkichlarini xoʼjalik toifalari boʼyicha tahlili, jami don yetishtirish umumiylajmida 74,7 % i fermer xoʼjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʼrsatdi.




## Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar

- Jondor tumani 13,6 %
- Vobkent tumani 10,2 %
- Qorako'l tumani 10,0 %
- Romitan tumani 9,8 %


### Past ulushga ega hududlar

- Kogon shahri 0,1 %
- Buxoro shahri 0,2 %
- Kogon tumani 6,1 %
- Buxoro tumani 6,8 %




## Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2022–yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 884,0 ming t. sabzavotlar (2021–yilning yanvar – dekabriga nisbatan 6,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 61,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.




## Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar

Jondor tumani **13,6 %**

Peshku tumani **12,2 %**

Romitan tumani **12,0 %**

G'ijduvon tumani **11,3 %**

### Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri **0,1 %**


Qorovulbozor tumani **2,6 %**

Buxoro shahri **3,3 %**


Kogon tumani **3,7 %**

## Kartoshka


**Hajmi, ming. t.**



**O'sish sur'ati**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 249,1 ming. t. kartoshka (2021– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 6,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 82,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.




## Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar


- Buxoro tumani 13,6 %
- Jondor tumani 13,5 %
- Peshku tumani 13,4 %
- Vobkent tumani 10,1 %

### Past ulushga ega hududlar


- Kogon shahri 0,4 %
- Buxoro shahri 0,8 %
- Qorako'l tumani 5,2 %
- Shofirkon tumani 5,4 %



## **Poliz**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022–yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 198,3 ming t. poliz (2021–yilning yanvar– dekabriga nisbatan 10,8 % ga ko'p) ekinlari yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, poliz ekinlari yetishtirish umumiylajmidan 54,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.




## Hududlar bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar

Peshku tumani 17,4 %

Jondor tumani 14,2 %

Qorovulbozor tumani 11,4 %

Olot tumani 10,3 %

### Past ulushga ega hududlar

Buxoro shahri 0,4 %


Kogon tumani 1,9 %

Vobkent tumani 4,3 %


Shofirkon tumani 4,6 %

## Meva va rezavorlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 289,6 ming t. meva va rezavorlar (2021– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 8,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 56,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



## Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish



### Yuqori ulushga ega hududlar

Jondor tumani 23,8 %

Buxoro tumani 13,0 %

Vobkent tumani 10,4 %

Peshku tumani 10,1 %

### Past ulushga ega hududlar

Buxoro shahri 1,4 %

Qorovulbozor tumani 1,3 %


Kogon tumani 2,7 %

Olot tumani 3,6 %




## Uzum


Hajmi, ming t.



Oʼsish surʼati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xoʼjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi




2022– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan 218,7 ming t. uzum (2021– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 6,4 % ga koʼp) yetishtirildi. Uzum yetishtirish koʼrsatkichlarini xoʼjalik toifalari boʼyicha tahlili, uzum yetishtirish umumiyligi hajmidan 54,6 % i dehqon va tomorqa xoʼjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʼrsatdi.




## Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiylajmiga  
nisbatan ulushi**



### Yuqori ulushga ega hududlar

Buxoro tumani	<b>19,2 %</b>
Jondor tumani	<b>13,8 %</b>
Romitan tumani	<b>11,9 %</b>
Shofirkon tumani	<b>11,7 %</b>


### Past ulushga ega hududlar

Qorovulbozor tumani	<b>0,7 %</b>
Buxoro shahri	<b>0,9 %</b>
Kogon tumani	<b>2,0 %</b>
Olot tumani	<b>3,6 %</b>



## Chorvachilik

2022–yilning yanvar – dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 15 956,7 mlrd. so‘mni yoki 2021–yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.



Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to’ldirishga imkon yaratdi.


2022–yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 284,9 ming t. go‘sht (2021–yilning yanvar – dekabriga nisbatan 2,3 % ga ko‘p), 1 053,3 ming t. sut (3,2 % ga ko‘p), 519,7 mln. dona tuxum (8,8 % ga ko‘p), 4,1 ming t. jun (3,9 % ga ko‘p), 566,5 ming dona qorako‘l teri (3,9 % ga ko‘p) yetishtirildi va 9,8 ming t. baliq (9,7 % ga kam) ovlandi.

### **Go'sht (tirik vaznda)**


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik  
toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2022- yilning yanvar - dekabr oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 256,0 ming t. yoki umumiyl yetishtirish hajmidan 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2021- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2022- yilda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,4 % va fermer xo'jaliklarda 8,3 % o'sish kuzatildi.




## Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish

hajmi, ming tonna



Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi



### Yuqori ulushga ega hududlar

G'ijduvon tumani	13,1 %
Jondor tumani	11,7 %
Buxoro tumani	10,7 %
Kogon tumani	10,4 %


### Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri	0,7 %
Buxoro shahri	0,9 %
Qorovulbozor tumani	2,1 %
Olot tumani	6,8 %




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik  
toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 966,5 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 91,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar- dekabr oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 9,3 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 0,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 116,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 161,7 % o'sish kuzatildi.



## Hududlar bo'yicha sut yetishtirish




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
G'ijduvon tumani 12,4 %	Kogon shahri 0,1 %
Buxoro tumani 11,1 %	Buxoro shahri 0,5 %
Shofirkon tumani 10,9 %	Qorovulbozor tumani 1,3 %
Jondor tumani 10,7 %	Kogon tumani 5,3 %



## Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik  
toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 280,7 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 54,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.


2022- yilning yanvar- dekabr oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 94,7 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 18,2 % i fermer xo'jaliklarda kuzatildi.

2021- yilga nisbatan, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,2 % va fermer xo'jaliklarda 9,4 % o'sish kuzatildi.




## Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish

**hajmi, mln. dona**



**Viloyatning umumiylajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega hududlar**

Jondor tumani **20,7 %**

Kogon tumani **14,8 %**

G'ijduvon tumani **11,5 %**

Qorako'l tumani **9,5 %**

**Past ulushga ega hududlar**

Kogon shahri **0,2 %**

Qorovulbozor shahri **2,5 %**


Buxoro shahri **2,7 %**

Olot tumani **4,5 %**




## Baliq


**Hajmi, t.**



**O'sish sur'ati**



**Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 7 225,2 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 73,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2022- yilning yanvar - dekabr oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 924,0 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 9,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida kuzatildi.

2021- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 27,7 % va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,5 % o'sish kuzatildi.



## Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Shofirkon tumani 48,9 %	Buxoro shahar 1,6 %
Olot tumani 9,8 %	Kogon tumani 1,8 %
Peshku tumani 8,2 %	Qorovulbozor tumani 1,8 %
G'ijduvon tumani 6,5 %	Vobkent tumani 2,2 %





## Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 17,2 % i fermer xo'jaliklariga, 74,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiyligini sonidan 42,9 % i fermer xo'jaliklariga, 39,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 25,3 % i fermer xo'jaliklariga, 43,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 328,9 mingtaga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 43,6 mingtaga (3,4 %) ko‘paydi.

### Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,4 % i dehqon tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




## Yirik shoxli qoramollar

bosh son, ming bosh



Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi



### Yuqori ulushga ega tumanlar

G'ijduvon tumani	12,4 %
Qorako'l tumani	11,5 %
Shofirkon tumani	10,8 %
Jondor tumani	10,1 %

### Past ulushga ega hududlar


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,5 %
Qorovulbozor tumani	1,6 %
Kogon tumani	6,9 %

2023– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 434,7 mingtaga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 12,4 mingtaga (2,9 %) ko‘paydi.

### Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



2023– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 90,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.




## Sigirlar bosh soni

bosh son, ming bosh



Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

Qorako'l tumani	14,5 %
G'ijduvon tumani	12,6 %
Jondor tumani	10,2 %
Shofirkon tumani	10,1 %

**Past ulushga ega hududlar**


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,5 %
Qorovulbozor tumani	1,8 %
Olot tumani	7,4 %

2023–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 416,0 mingtaga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 112,0 mingtaga (4,9 %) ko‘paydi.

### Qo‘y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 75,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.




## Qo'y va echkilar

### bosh son, ming bosh



### Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi



#### Yuqori ulushga ega tumanlar

Jondor tumani	13,5 %
G'ijduvon tumani	13,2 %
Qorako'l tumani	12,2 %
Peshku tumani	11,5 %

#### Past ulushga ega hududlar


Kogon shahar	0,1 %
Buxoro shahar	0,8 %
Kogon tumani	4,0 %
Vobkent tumani	4,5 %

2023– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 7 237 taga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 441 taga (6,5 %) ko‘paydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O'sish sur'ati**




**Jami bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023– yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 42,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.




## Otlar bosh soni

bosh son, bosh



Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi



### Yuqori ulushga ega tumanlar

G'ijduvon tumani	16,2 %
Romitan tumani	15,7 %
Peshku tumani	14,0 %
Qorovulbozor tumani	10,5 %

### Past ulushga ega hududlar


Buxoro shahar	0,8 %
Olot tumani	2,9 %
Kogon tumani	3,2 %
Vobkent tumani	4,0 %

2023–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 721,2 mingtaga yetdi.


2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 485,5 mingtaga (7,8 %) ko‘paydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa  
xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023–yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g’risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 43,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g’ri kelishini qayd etish lozim.




## Parrandalar

**bosh son, ming bosh**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega tumanlar**

Jondor tumani	27,2 %
G'ijduvon tumani	14,6 %
Kogon tumani	13,2 %
Buxoro tumani	9,4 %

**Past ulushga ega hududlar**

Buxoro shahar	2,0 %
Qorovulbozor tumani	2,1 %
Peshku tumani	2,5 %
Olot tumani	4,2 %

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi



• 65- 223-44-45